



SHAHARLARDA TIRBANDLIKNI KAMAYTIRISH UCHUN TAVSIYALAR

Saidov O'rol Abdixamid o'g'li

ORCID:0009 0007 0839 6758

saidovorol0@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8419910>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 01-October 2023 yil

Ma'qullandi: 04- October 2023 yil

Nashr qilindi: 09- October 2023 yil

KEY WORDS

Transport, yo'l, Aqlli svetafor, Yo'l Patrul Xodimi, yengil relsli transport, jamoat transporti, tirbandlik hamda tirbandlik narxlari.

ABSTRACT

Mazkur maqola shaharlarda tirbandlikni kamaytirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlarni yoritishdan iborat. Haydovchilar va yo'lovchilarning vaqtini tirbandliklarda o'tkazmasliklari va foydali mashg'ulotlar bilan shug'ullanishlari ochib beriladi. Ushbu tadqiqot ishida Toshkent shahri ko'chalarida transport vositalari tirbandligini tartibga solishni tadqiq qilish, o'tkazuvchanlik qobiliyatini oshirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish, bu borada shaharda tirbandlikni kamaytirish yangicha va zamonaviy mexanizmlarini yaratish, ushbu faoliyat yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, muomolarni tadqiq etish bo'yicha samarali metodlarni ishlab chiqishning muhim ahamiyati haqida so'z yuritilgan.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-sentabr kuni transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo'yicha yig'ilish nutqidan "Transport qulayliklari mamlakat rivojini ko'rsatuvchi va buni ta'minlovchi omillardan biri. Yurtimizda soha infratuzilmasi yangilanib, sharoitlar kengaytirilayotgani o'z natijalarini bermoqda"¹.

Shaharlarda tirbandlikni kamaytirish uchun tavsiyalar nazariy o'rganish obyektlari qatorida "Shaharlarda tirbandlikni kamaytirish" uchun tavsiyalar berish markaziy o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodi, sanoati va ijtimoiy hayotida avtomobil transporti chuqur kirib, unga bo'lgan ehtiyoji kun sayin ortib bormoqda. Bundan tashqari maktab, litsey, universitetlarning soni oshganligi hamda malakasiz haydovchilarning avtomobil boshqarishi natijasida tirbandliklar soni kundan kunga ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan ta'kidlashimiz lozimki, ushbu tushunchaning tadqiqi "shaharlarda tirbandlikni kamaytirish" tushunchalarining tahlili, ularning mazmun va mohiyatini alohida o'rganish maqsadga muvofiq.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bugungi kunda, mamlakatimizda avtomobillar sonining ortib borishi yo'llarda tirbandliklarni keltirib chiqarmoqda. Nafaqat mamlakatimizda balkim, dunyoning ko'plab

¹ Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-sentabr kuni transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo'yicha yig'ilish nutqidan. 28.09.2022.

shaharlarida transport tirbandligi asosiy muammo hisoblanadi. Bu sayohat vaqtlarining ko'payishiga, havoning ifloslanishiga va shovqin darajasiga olib kelishi mumkin. Bu iqtisodiyotga va odamlarning hayot sifatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tirbandlik avvalom bor birinchi bo'lib qadimgi Rim imperiyasida qayd etilgan bo'lsa, keyinchalik XVII asrda Yevropa shaharlarida odamlar o'sib borgani sayin vujudga kelgan.² XIX asrga kelganda Angliyada metrolar ishga tusha boshlagandan so'ng tirbandlik kamaya boshlagan. Ammo hozirga kelib tirbandlik katta muomolardan biri bo'lib kelmoqda. Bu tirbandliklarni keltirib chiqarishga sabab qilib quydagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Shoshqaloq va tajribasiz haydovchilar yo'llarda risoladagidek harakatlana olmasligi, bir-birini hurmat qilmasligi, avtomobillarni noto'g'ri joylashtirishlar, misol uchun Toshkent shahrida avtomobillarni yo'llarni chekkasida qoldirib ketishlari tirbandliklarga sabab bo'ladi. Yo'llardagi nosozliklar bilan bog'liq muomolar ayrim joylarda to'liq bartaraf etilmagan, yo'l infratuzilmasi bilan bog'liq ayrim kamchiliklarni bartaraf etishga bo'lgan ehtiyojlar bor. Tirbandliklar natijasida insonlar vaqtining qanchadir qismi yo'llarda o'tmoqda. Yo'llardagi tirbandlikni kamaytirish uchun bir qancha ishlarni amalga oshirish mumkin, jumladan: Jamoat transportiga investitsiya qilish. Bu odamlarning mashina haydash o'rniga jamoat transportidan foydalanishini osonlashtiradi va jozibador qiladi. Bu avtobuslar, poyezdlar, metro va yengil relsli tizimlarga sarmoya kiritishni o'z ichiga olishi mumkin. Ko'proq piyodalar va velosiped infratuzilmasini qurish. Bu odamlarning yurishi va velosipedda harakatlanishini osonlashtiradi va xavfsizroq qiladi, bu esa yo'lda avtomobillar sonini kamaytirishi mumkin. Bu piyodalar yo'lakchalarini, velosiped yo'lakchalarini va himoyalangan velosiped yo'lakchalarini qurishni o'z ichiga olishi mumkin. Avtomobil va avtomashinalarni rag'batlantirish. Bu bir nechta odamning bitta transport vositasini birgalikda ishlatishi orqali yo'lda avtomobillar sonini kamaytirishga yordam beradi. Masofadan ishlashni targ'ib qilish. Bu odamlarga uyda ishlash imkonini beradi, bu esa ishga va ish joyiga boradigan odamlar sonini kamaytirishi mumkin. Ushbu chora-tadbirlarga qo'shimcha ravishda, transport tirbandligini kamaytirish uchun bir qator boshqa narsalar ham mavjud, masalan: Svetoforning sinxronizatsiyasini yaxshilash. Bu kechikishlarni kamaytirish va transport oqimini yaxshilashga yordam beradi. Tiklangan joylarda to'xtash joylarini cheklash. Bu yo'lda avtomobillar sonini kamaytirishga yordam beradi. Muqobil yo'llardan foydalanishni rag'batlantirish. Bu tirbandlikni kengaytirish va ayrim yo'llarda tirbandlikni kamaytirishga yordam beradi. Park va sayr qilish uchun qulayliklar yaratadi. Bu odamlarga mashinalarni tirbandlikdan tashqariga qo'yish va jamoat transportida yurish imkonini beradi. Bu takliflarga yana qo'shimcha takliflarni kiritadigan bo'lsak; aqlii svetoforlar o'rnatilishi tirbandlikning oldini olishda yordam beradi. Bundan tashqari, misol qilib Toshkent shahridagi universitetlarni Toshkendan chekkaroqqa ko'chirish, bu tirbandlikni kamaytirishga juda katta yordam berishi mumkin. Chunki talabalar ta'tildan kelishi bilan tirbandliklar ko'paydi. Agarda universitetlar chekka-chekka hududlarga ko'chirilsa tirbandliklar yetarli darajada qisqarishi mumkin. Bundan tashqari yuktashuvchi avtomobillar (yuk tashish qobiliyati 3-5 tonnagacha ko'tara oladigan yuk tashuvchi avtomobillar)ni kuning tun qismida harakatlanishi, ya'ni 22:00 dan 06:00gacha shaharlar ichida yuk tashuvchi avtomobillardan foydalanish vaqtini cheklash lozim.

² Van Tilburg, Cornelis (2007). Traffic and Congestion in the Roman Empire. Routledge. p. 33.

Agarda biz tirbandlik muommosiga barham beradigan bo'lsak, Toshkent shahri havosi tozalashiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Yevropa olimlarining fikricha tirbandlik havo ifloslanishiga olib keladi bizning Toshkent shahrimiz ham tirbandliklarning ko'p miqdorda sodir bo'lganligi uchun ham havo ifloslanishi bo'yicha 1-oringa chiqdi. Tirbandliklarning oldini olishimiz uchun quydagi uslublarni qo'llashimiz kerak. Bunday muomolarni hal qilishda biz faqatgina yo'lni kengaytirish bilan tirbandlik muomosini hal qila olmaymiz. Biz bunda jamoat transportiga ustunlik berishimiz kerak. Hamda fuqarolarga piyoda yoki velosipedda ko'proq yurishini eslatib turishimiz kerak. Dunyo tajribalariga qaraydigan bo'lsak "Aqlli svetoforlar"lar o'rnatib, yo'l harakatini onlayn boshqarib o'tkazuvchanligini oshirishimiz zarur.

Londonlik olimlarning ta'kidlashicha, bu tirbandliklar havoning ifloslanishiga olib kelarkan chunki avtomobillar 50/km 70/ km tezlikdan kam haydaladigan bo'lsa o'zidan zaharli gaz chiqara boshlaydi, yoki to'xtab turgan paytda o'zidan zaharli gazlarni ishlab chiqaradi va havo ifloslanishiga olib keladi.³ Shuning uchun, tirbandlik muomolariga barham berishimiz lozim. Bunday muomolarni oldini olishda Yo'l patrul xodimlari ham juda katta yordam berib kelmoqda, Bu muommoni oldini olishda Yo'l patrul xodimlari katta chorahalarda turib avtomobillar harakatini uzluksiz kuzatib turishibti, bu ham tirbandlikni oldini olishda katta yordam bermoqda. Hozirga kelib ko'plab mamlakatlarda ushbu muomolarni hal qilishga kirishilgan. Bugungi kunga kelib tirbandlikni batamom yo'q qilish uchun aniq strategiya ishlab chiqilmagan, ammo xorijiy mamlakatlar bir necha metodlarni qo'llab uni kamaytirishga erishilmoqda. Misol uchun, eng katta mamlakatlardan biri Xitoy tirbandlikni kamaytirish uchun quydagi tavsiyalardan foydalanib kelmoqda. Xitoy jamoat transportiga dunyodagi eng katta tezyurar temir yo'l tarmog'ini qurishga katta sarmoya kiritdi. Mamlakat, shuningdek, ba'zi yirik shaharlarda tirbandlik narxlarini joriy qildi. Gollandiyani aytadigan bo'lsak, velosipedda 32 000 kilometr dan ortiq velosiped yo'laklari bilan dunyoda etakchi hisoblanadi.⁴ Mamlakat jamoat transportiga ham katta sarmoya kiritdi. Yaponiyada avtobuslar va metrolarni o'z ichiga olgan keng qamrovli jamoat transporti tizimi mavjud.⁵ Shuningdek, Tokio va Osakada tirbandlik narxlarini joriy qilingan.

Xulosa

Yuqorilardan ko'rinib turibiki "Shaharlarda tirbandliklarni kamaytirish" uchun tavsiyalarda bugungi kun talablaridan kelib chiqib qayta ishlash talab qilinadi. O'zbekiston Respublikasida shaharlardagi tirbandliklarni kamaytirish uchun yo'llardagi nosozliklarni kamaytirish, yo'llarni kengaytirish, aqlli svetaforlarni sinovdan o'tkazish, hamda xorijiy uslublarni qo'llash lozim. Xududiy darajadagi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashni yanada takomillashtirish sohasida tartibga solish va nazorat qilish mexanizmlarining samarasi yetarli darajada emasligini keltirish mumkin. Shunday qilib yuqoridagi tahlillar asosida "Shahardagi tirbandliklarning kamaytirish uchun" qilinayotgan ishlarga chin dildan yondashish hamda bunday tirbandliklarga barham berish. Tirbandliklarga barham berilgandan so'nggina, o'z-

³ Northern line extension Monthly update" (PDF). Transport for London. July–August 2015.[permanent dead link.

⁴ The busiest cycleway in the Netherlands — Bicycle Dutch (archived)

⁵ Ma, Yujia (马玉佳). "New high-speed trains on drawing board- China.org.cn". www.china.org.cn. Retrieved 2017-11-13.

o'zidan shaharlarimizda shovqin hamda havo ifloslanish holatlari kamayishiga guvoh bo'lamiz

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Prezident Shavkat Mirziyoyev 28-sentabr kuni transport sohasida islohotlarni jadallashtirish masalasi bo'yicha yig'ilish nutqidan. 28.09.2022.
2. Van Tilburg, Cornelis (2007). Traffic and Congestion in the Roman Empire. Routledge. p. 33.
3. Northern line extension Monthly update" (PDF). Transport for London. July–August 2015.[permanent dead link.
4. Microbiology Society. "Air pollution is not just a human problem -- it's also changing the gut of British bumblebees." ScienceDaily. ScienceDaily, 13 April 2023.
5. <www.sciencedaily.com/releases/2023/04/230413154455.htm>.
6. Oktavianoor, Rakhmad, Refyan. 2010. Paper Transportasi Jepang, Universitas Brawijaya Fakultas, Teknik Jurusan Perencanaan, Wilayah Dan Kota, 22 November
7. The busiest cycleway in the Netherlands — Bicycle Dutch (archived)
8. Pittsburgh foundations, Carnegie Mellon University has worked with the City of Pittsburgh and East Liberty Development Inc.
9. "Length of Beijing-HK rail network same as Equator". www.thestar.com.my. Retrieved 2022-01-01.
10. Ma, Yujia (马玉佳). "New high-speed trains on drawing board- China.org.cn". www.china.org.cn. Retrieved 2017-11-13.

INNOVATIVE
ACADEMY